

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-fevral oylari uchun


- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-mart holatiga ko'ra viloyatda 2 757 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 629 ta (22,8 %);
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 571 ta (20,7 %);
- tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – 216 ta (7,8 %);
- mebel ishlab chiqarish – 180 ta (6,5 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 170 ta (6,2 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 112 ta (4,1 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalarini ulushi (2026-yil 1-mart holatiga ko'ra)



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 47 649,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	47 649,4	103,4
Navoiy sh.	43 803,8	103,2
Zarafshon sh.	91,7	106,8
G'ozg'on sh.	19,7	112,7
tumanlar:		
Karmana tumani	1 818,4	100,4
Konimex tumani	155,2	127,6
Qiziltepa tumani	191,7	104,3
Navbahor tumani	176,6	98,2
Nurota tumani	63,8	106,2
Tomdi tumani	55,5	121,2
Uchquduq tumani	54,4	103,8
Xatirchi tumani	436,3	121,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 41 218,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (86,5 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 4 650,0 mlrd so'm (9,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 701,4 mlrd so'm (3,6 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 80,0 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-fevral oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 16,5 tonna Tvorog va tvorogdan mahsulotlar (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,8 % ga oshgan), 112,0 ming tonna sement (63,1 % ga kamaygan) hamda 24,4 ming m³ azot (19,7 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	5,4	6,0	1,0
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	14,4	15,6	16,5
Yogurt, tonna	0,1	2,7	1,2
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, ming d	432,8	178,9	248,7
Azot, ming m ³	1,3	46,6	55,8

Argon, ming m ³	274,1	256,9	218,5
Mochevina (karbamid), ming t azot	44,7	41,5	22,6
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	2,0	1,9	2,0
Portlandsement, ming t	329,5	303,5	112,0

*2024-2026-yillarning yanvar-fevral oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 87,9 % (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-fevral oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,2 % (6,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 89,9 % (86,9 %), quyi texnologiyali 3,8 % (6,3 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 99,0 % ni tashkil etdi, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 84,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	2 162,3	1 767,1	1 749,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 180,1	1 163,6	942,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 19,0 % ga, oqava suvlarning shلامي 2,0 m ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 35,1 % ga ko'paygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	8,4	53,3	63,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	22,8	10,1	13,6
Oqava suvlarning shلامي, mlrd so'm	0,4	6,6	13,5

*2024-2026-yillarning yanvar-fevral oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 741,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik



subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari;
e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

